

KOGNITIV YONDASHUV VA UNING MOHIYATI

*Xoliqova Zahro Arol qizi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili ixtisosligi 1-kurs tayanch doktoranti*

THE COGNITIVE APPROACH AND ITS ESSENCE

*Khaliqova Zahro Arol qizi, Shahrisabz State Pedagogical Institute,
1st year basic doctoral student, majoring in Uzbek language*

КОГНИТИВНЫЙ ПОДХОД И ЕГО СУЩНОСТЬ

*Холикова Захро Арол кызы, базовый докторант 1-курса по
специальности Узбекский язык Шахрисабзского
государственного педагогического института*



<https://orcid.org/0009-0009-3402-8363>

e-mail:

zakhrokhlikova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kognitiv yondashuv va uning mazmun-mohiyatiga oid ma'lumotlar berilgan. Maqolada til birliklariga kognitiv yondashuv imkoniyatlari ko'rsatilgan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Mental xarakterga ega tilning kognitiv yondashuv orqali o'rganilishi tilning ikkinchi til sifatida o'rganilishini osonlashtiradi. Kognitiv yondashuv semantik yondashuvdan kengroq bo'lib, ensiklopedik ma'nolarni anglatadi.

Kalit so'zlar: konseptualashtirish, kategoriyalashtirish, qomusiy bilim, mantiq, leksik-semantik ma'no, neyrolingvistika, lison.

Abstract: This article provides information about the cognitive approach and its essence. The article demonstrates the possibilities of a cognitive approach to language units. The descriptive method was used in the article. The study of language with a mental character through a cognitive approach facilitates the study of language as a second language. The cognitive approach is broader than the semantic approach and refers to encyclopedic meanings.

Keywords: conceptualization, categorization, encyclopedic knowledge, logic, lexical-semantic meaning, neurolinguistics, language.

Аннотация: В этой статье представлена информация о когнитивном подходе и его сущности. В статье показаны возможности когнитивного подхода к языковым единицам. В статье использован описательный метод. Изучение языка ментального характера с помощью когнитивного подхода облегчает изучение языка как второго. Когнитивный подход шире семантического подхода и означает энциклопедические значения.

Ключевые слова: концептуализация, категоризация, энциклопедическое знание, логика, лексико-семантическое значение, нейролингвистика, язык.

KIRISH. Til insonlar bilan munosabatimizni ifodalovchi eng muhim vositadir. Tilsiz fikrlarimizni yetkazish imkoniyati yo'q. Bilishsiz esa inson onging mavjud bo'lishi mumkin emas. Bilish aqliy jarayon sifatida insoniyatga mavjudlikni anglash imkonini beradi. Eng muhimi, agar insonlar aqliy faoliyatning chuqur shakli bo'lgan kognitiv qobiliyatdan mahrum bo'lganida, hech qanday fan

paydo bo'lmas edi. Bilish fikrlash, eslab qolish, o'rganish va eng muhimi, tildan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga olgan faol aqliy faoliyatni anglatadi. Shunga ko'ra, ta'lim va o'qitishga kognitiv yondashuvni qo'llash jarayonida biz asosan ma'lumot va tushunchalarni anglashga e'tibor qaratamiz. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, kognitiv

yondashuv shunchaki tushunishdan ko‘ra chuqurroq anglash yoki bilishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Kognitiv tilshunoslik XX asrning 80-yillaridan keyin paydo bo‘ldi. U bilan birga kognitiv yondashuv tushunchasi ham kirib keldi. Til birliklarini alohida yoki birlik sifatida sinchkovlik bilan o‘rganish kognitiv lingvistik yondashuvni anglatadi. Bu yondashuv til birliklarini ichkaridan tahlil qiladi, ya’ni birlikning ko‘p qirrali nuqtalarini o‘rganadi.

Kognitiv yondashuv tushunchalar o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash, axborotni parchalash va ularni mantiqiy aloqalar bilan qayta tiklashni o‘z ichiga oladi, shunda materialni sifatli tushunishimiz osonlashadi¹. Kognitiv yondashuv turli fanlarda juda mashhur atama; u ayniqsa psixologiya, psixolingvistika va neyrolingvistikaga xosdir. Shuning uchun tilshunoslikda “kognitiv lingvistik yondashuv” atamasi qabul qilingan. Bir qator olimlar tilshunoslikda ushbu yondashuvning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Uning ilk asoschilaridan biri Ronald Langakerdir. Langakerning fikricha, kognitiv lingvistik yondashuv bizning fikrlashimiz, his qilishimiz va shunga muvofiq xatti-harakatlarimizni anglatadi. Uning nazariyasiga ko‘ra, kognitiv lingvistik yondashuv xotira, psixolingvistika, tafakkur, tushunish, motivatsiya va idrok bilan bir qatorda bilishning barcha shakllarini o‘z ichiga oladi. U xotirani kognitiv lingvistik yondashuvning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida ta’kidlaydi².

MUHOKAMA. Til hodisalariga kognitiv yondashuvning rivojlanishi uni bizning ongimiz va aqlimizning kontseptual va kognitiv tuzilishlaridagi ma’lumotlar manbai sifatida tushunishga yordam berdi. Kognitiv yondashuv tadqiqot obyektini umumiyaxlitlash va leksik ma’nodagi tarkibiy qismlarni tahlil qilish usullarini kengaytirishga imkon beradi. Kognitiv lingvistikada barcha til jarayonlari insonning bilish faoliyati bilan olamni kontseptuallashtirish va kategoriyalashtirishga xizmat qiladi³. Aynan olamni kontseptuallashtirish va kategoriyalashtirish til birliklarining kognitiv

tomonini ochib berishda dastlabki bosqich hisoblanadi.

Tilshunoslikda mentallik xususiyatiga ega bo‘lgan til birliklari belgilar tizimi sifatida tushuniladi va ular vositasida inson o‘zini o‘rab turgan obyektiv olamga xos xususiyatlarni asta-sekinlik bilan anglaydi, voqelik faktlarini o‘zlashtira boradi. Ana shu holatda tilning o‘z ijtimoiy vazifalarini namoyon etishi bevosita amalga oshiruvchini – inson ishtirokini taqozo qiladi. Zamonaviy tilshunoslikning an’anaviy tilshunoslikdan farqi shundaki, unda lisoniy hodisalar mohiyatini ochib berishda belgining ifoda va mazmun planiga emas, balki mazkur jarayonni amalga oshiruvchi inson omiliga, insonning bu jarayondagi o‘rniga alohida e’tibor qaratiladi⁴. Kognitiv tilshunoslik shu asosda inson ongidagi milliy-madaniy, ruhiy-falsafiy, qomusiy, mantiqiy bilimlari zahirasi va ularni nutqning og‘zaki va yozma shakli orqali namoyon bo‘lishini ta’minlovchi vosita – tilni ongga bog‘liq holda o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi va lingvistik tadqiqotlarda shunga asoslanadi. Til birliklariga bunday yondashuv birlikning barcha qirralarini ochib beradi. Bundan tashqari har bir til birligi vazifasiga ko‘ra ham farqlanadi. Masalan, so‘z bilan so‘z birikmasini turlicha kognitiv tahlil qilinadi.

Til birliklarini leksik va semantik tahlil qilishda kognitiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Masalan, *qora* so‘zining aynan rang ma’nosidan tashqari boshqa ma’nolari ham bor: *qora non*, *qora gilos*, *qora bulut*, *qora tuproq* misollarida qora tusga moyil ranglilik; *qora sovuq*, *qora qon* misollarida belgining kuchli darajasi; *qora niyat*, *qora kuch*, *ko‘ngli qora*, *qora bozor*, *qora xalq*, *qora mehnat* birikmlarida ko‘chma ma’no ifodalaydi. Yoki *amaki* so‘zi matndan tashqari qarindoshlik ma’nosini ifodalasa, boshqa bir matnda begona kishiga hurmat ma’nosida ifodalanishi ham mumkin. Yuqoridagi misollardan shuni xulosa qilish mumkinki, bir tildagi so‘zning o‘rganish uchun nihoyatda qirralari ko‘pki, ularning barchasi kognitiv tahlil doirasida

¹ Tukhtaeva K, Cognitive linguistic approach to the analysis of language units. Article. Vol. 2 No. 5, MAY 2021, ISSN: 2660-5562.

² Langacker, R. W. (1987). Foundations of Cognitive Grammar. Vol.1. Theoretical prerequisites. Stanford: University of Stanford Press. Vol. 2, No. 1 English Language Teaching.

³ Shodieva Shoxida Inatovna. Tilshunoslikda kognitiv yondashuv. *Образование и инновационные исследования* (2023 год № 7).

⁴ Shodieva Shoxida Inatovna. Tilshunoslikda kognitiv yondashuv. *Образование и инновационные исследования* (2023 год № 7).

o'rganiladi. Bu tahlilda tillarning lingvomadaniy xususiyati ham yaqqol ko'rinadi. Misollarda ko'rishimiz mumkinki, til birliklarining semantik ma'nolari kognitiv tahlilning bir namunasi sifatida qaralgan. Chunki kognitiv yondashuv so'zning ma'nosini chuqurroq anglash ekan, uning ko'chma ma'nolarini hisobga olish so'zni yanada yaxshi tushunishga olib keladi.

NATIJALAR. Kognitiv lingvistikaning bugungi kunda quyidagi asosiy yo'nalishlari mavjud: 1. Bilishning biologik nazariyasi. U biosemiotika ma'lumotlariga asoslanadi. Biosemiotika tadqiqotchilari ishlarida nafaqat inson, balki boshqa aqlli mavjudotlarning tafakkur jarayoni haqidagi fikrlar bildirilgan. 2. Bilishning biomadaniy nazariyasi. Ushbu nazariyaga ko'ra oddiy tirik mavjudotlar uchun borliq faqat jismoniy ahamiyat kasb etsa, inson uchun u ham jismoniy, ham madaniy ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra inson to'rt tipdagi qadriyatlarga ega bo'ladi: 1) stimuly; 2) assotsiativ; 3) taqlidiy; 4) ramziy. 3. Shu tariqa, ushbu yo'nalishlarda til va bilishning biologik asoslari insonning qabul qilish, emotsional holati, empirik tajribasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. 3. Sun'iy intellekt yaratish nazariyasi. Bu nazariya asoslari informatika fanidan olingan bo'lib, unda sun'iy intellekt va inson ongi, tili o'rtasidagi bog'liqliklar o'rganiladi. 4. Kognitiv semantika yo'nalishi. Kognitiv semantikani yana "tildagi konseptualizatsiya va kategorizatsiya nazariyasi" deb ham atashadi. Ushbu nazariyaga ko'ra til birligining ma'nosi boshqa kognitiv strukturalar kontekstida aniqlanishi zarur, chunki ushbu bilimlar bloki mazkur ma'nolar ortida turadi va ularni tushunishni ta'minlaydi"⁵. Bu yo'nalishlardan ko'rinadiki, kognitiv tahlil so'zning barcha qirralarini qamrab oladi va uni aniqroq tushunishga

yordam beradi. Bundan tashqari bir tilni o'rganayotganda ham so'zning ma'no-mohiyatini tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilidagi til birliklarini sanaydigan bo'lsak, so'z birikmasi so'zga nisbatan, gap so'z birikmasiga nisbatan, matn gapga nisbatan aniqroq ma'no ifodalaydi. Til birliklarining kognitiv ma'nosini aniqroq ifodalash uchun grammatik vositalar va kognitiv semantika yordam beradi. Masalan, *qimmat* so'zining ma'nosi boshqa narsalarga nisbatan bahosi baland degan ma'noni anglatadi. *Qimmatli maslahat, qimmatli vaqt* so'z birikmalari tarkibida so'zning ma'nosi aniqlashgan. "O'g'lim qimmat soat sovg'a qildi", gapida so'z ma'nosi yanada aniqlashgan. Demak, til birliklarining kognitiv ma'nosi bosqichma-bosqich aniqlashib boradi.

XULOSA sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, yuqoridagi misollar kognitiv lingvistik yondashuvning til birliklari tahliliga chuqurroq kirib borishini, semantik ma'no va uning tilda amal qilishini o'rganishini ko'rsatadi. Shuningdek, u til birliklarini ko'p qirrali hodisa sifatida ko'rib chiqadi, ya'ni har bir til birligi sinchkovlik bilan o'rganilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tukhtaeva K. Cognitive linguistic approach to the analysis of language units. Article. Vol. 2 No. 5, may 2021, ISSN: 2660-5562.
2. Langacker, R.W. (1987). Foundations of Cognitive Grammar. Vol.1. Theoretical prerequisites. Stanford: University of Stanford Press. Vol. 2, No. 1 English Language Teaching.
3. Shodieva Shoxida Inatovna. Tilshunoslikda kognitiv yondashuv. Образование и инновационные исследования (2023 год № 7).



⁵ Muhammedova S., Saparniyozova. Matn lingvistikasi. O'quv qo'llanma.- Toshkent: TDPU, 2011.96-97-betlar.